

FARG'ONA VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-oktabr*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 73-241-97-68*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-noyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 7 559 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 147 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 7 512 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 25 480,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 108,6 % ga yetdi. Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 2 753,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 133,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 20 658,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 068,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 115,8 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	25 480,1	108,6
shaharlar		
Farg'ona	3 914,4	109,5
Qo'qon	3 489,8	108,7
Quvasoy	424,1	108,0
Marg'ilon	3 206,2	108,9
tumanlar		
Oltiariq	831,1	108,2
Qo'shtepa	467,0	107,6
Bag'dod	607,2	108,5
Buvayda	1 417,0	108,3
Beshariq	817,2	108,2
Quva	1 067,8	108,3
Uchko'prik	2 795,5	108,4
Rishton	578,8	108,4
So'x	720,4	104,9
Toshloq	725,5	107,6
O'zbekiston	466,4	108,3
Farg'ona	644,4	108,5
Dang'ara	563,0	108,6
Furqat	241,6	107,9
Yozyovon	348,9	108,0


2024- yilning yanvar-oktabr oylarida 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan viloyatning Farg'ona (**109,5** %),Marg'ilon (**108,9%**) va Qo'qon (**108,7**) shaharlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-oktabr)




So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,3 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda) (2023- yil ,2024-yil yanvar-oktabr oylari)



2024- yilning yanvar-oktabr oylarida o'sish sur'ati **108,6 %** ni tashkil qildi.



Hajmi, mlrd so'm

Farg'ona sh	3 914,4
Qo'qon sh.	3 489,8
Marg'ilon sh	3 206,2
Uchko'prik	2 795,5
Buvayda	1 417,0
Quva	1 067,8
Oltiariq	831,1
Beshariq	817,2
Toshloq	725,5
So'x	720,4
Farg'ona	644,4
Bag'dod	607,2
Rishton	578,8
Dang'ara	563,0
Qo'shtepa	467,0
O'zbekiston	466,4
Quvasoy sh	424,1
Yozyovon	348,9
Furqat	241,6

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Farg'ona shahri 15,4 % bilan 3 914,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Furqat tumani 0,9 % bilan 241,6 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra,

22 727,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 6,2% ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,2 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 33,4% ga o'sdi va 2 753,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,8 % ulushiga to'g'ri keldi.



108,7

Farg'ona

108,7

O'zbekiston

108,9

Buvayda

110,5

Oltiariq

112,5

Quvasoy

117,7

Farg'ona sh

Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

118,1

Rishton

130,5

Beshariq

132,7

So'x

155,6

Qo'qon

184,9

Uchko'prik


199,4

Marg'ilon

526,4

Dang'ara

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha So'x t (99,4 %), Toshloq (98,9 %) va Farg'ona (98,8 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 10,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Uchko'prik (40,9 %), Dang'ara (12,9 %), tumanlarida kuzatildi.

10,8 %




89,2 %


 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024- yilning yanvar-oktabr oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

6 225,9 ming so'mni (2023- yilning yanvar-oktabr oylariiga nisbatan 106,4 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Marg'ilon (12 563,5 ming so'm), Farg'ona (12 066,7 ming so'm) va Qo'qon (11 239,4 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-oktabr), foizda



Dehqon bozorlari




Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	2 068,6	115,8
shaharlar		
Farg'ona	263,9	123,7
Qo'qon	179,8	92,9
Quvasoy	44,9	110,9
Marg'ilon	213,7	102,4
tumanlar		
Oltiariq	49,1	112,3
Qo'shtepa	62,9	74,3
Bag'dod	190,9	238,6
Buvayda	239,2	106,5
Beshariq	227,0	107,2
Quva	165,3	123,5
Uchko'prik	64,2	135,9
Rishton	121,2	128,9
So'x	39,6	138,6
Toshloq	41,9	110,3
O'zbekiston	50,9	152,4
Farg'ona	30,0	92,9
Dang'ara	9,3	117,0
Furqat	1,8	101,9
Yozyovon	72,9	106,0

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;
– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-oktabr)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-oktabr)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 068,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 115,8 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 346,5 mlrd so'mni (131,8%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 722,1 mlrd so'mni tashkil etdi (104,6 %).

2024-yilning yanvar-oktabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 346,5 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (521,7 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 521,7 mlrd so'm  38,7 %	Non va non mahsulotlari 113,5 mlrd so'm  8,4 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 222,4 mlrd so'm  16,5 %
Tovuq go'shti 55,8 mlrd so'm  4,1 %	Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 86,5 mlrd so'm  6,4 %	Tuxum 74,8 mlrd so'm  5,6 %
Ziravorlar 46,8 mlrd so'm  3,8 %	Sut va sut mahsulotlari 41,6 mlrd so'm  3,1 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 29,0 mlrd so'm  2,2 %
Tuzlamalar 29,5 mlrd so'm  2,2 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 22,0 mlrd so'm  1,6%	Nooziq-ovqat tovarlar 102,9 mlrd. so'm 7,4 %

2024- yilning yanvar-oktabr oyida, Viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 722,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 560,4 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 149,4 mlrd so'mni, otlar – 7,8 mlrd so'mni, parrandalar – 4,5 mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 311,2 mlrd so'm  43,1 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 135,4 mlrd so'm  18,8 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 113,8 mlrd so'm  15,8 %
Qo'ylar 146,4 mlrd so'm  20,3 %	Otlar 7,8 mlrd so'm  1,1 %	Echkilar 3,0 mlrd so'm  0,3 %
Kurka, o'rdak, g'oz 1,6 mlrd so'm  0,2 %	Tovuqlar 2,2 mlrd so'm  0,3 %	Quyionlar 0,5 mlrd so'm  0,1 %
Qushlar 0,2 mlrd so'm  0,01%		

2024- yil 1- noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 016 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 014 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	14 246,0	112,1
shaharlar		
Farg'ona	231,3	109,5
Qo'qon	51,0	117,5
Quvasoy	11,0	111,0
Marg'ilon	88,3	114,6
tumanlar		
Oltiariq	19,1	113,5
Qo'shtepa	13,5	110,9
Bag'dod	11,4	108,2
Buvayda	10,2	105,6
Beshariq	17,4	111,3
Quva	22,4	112,0
Uchko'prik	20,1	106,5
Rishton	20,0	111,5
So'x	16,0	106,4
Toshloq	17,2	105,0
O'zbekiston	10,6	109,9
Farg'ona	17,7	110,4
Dang'ara	14,6	109,8
Furqat	14,1	111,4
Yozyovon	11,3	106,5

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 14 246,0 mlrd so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 112,1% ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,1 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, foizda
Farg'ona viloyati	5 613,3	100,0
Shaharlar		
Farg'ona	1839,5	32,8
Qo'qon	2481,8	44,2
Quvasoy	14,3	0,3
Marg'ilon	411,6	7,3
Tumanlar		
Oltiariq	31,5	0,6
Qo'shtepa	4,1	0,1
Bag'dod	8,4	0,1
Buvayda	18,2	0,3
Beshariq	4,6	0,1
Quva	14,9	0,3
Uchko'priq	113,9	2,0
Rishton	6,9	0,1
So'x	35,8	0,6
Toshloq	78,5	1,4
O'zbekiston	15,5	0,3
Farg'ona	4,7	0,1
Dang'ara	209,0	3,7
Furqat	22,7	0,4
Yozyovon	297,1	5,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qo'qon (2 481,8 mlrd. so'm), Farg'ona (1 839,5 mlrd. so'm) va Marg'ilon (411,6 mlrd. so'm) shahalari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-oktabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 5 613,1 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 45,9 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 2 528,1 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 149,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 3 085,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 3,9 m ko'paydi) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 17 817,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 9,2 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining 17 147,3 mlrd so'mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 96,2 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- noyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 365 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 25 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 340 tani tashkil qildi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Uchko'prik t (30,2 m.), Rishton (5,6 m) va Bag'dod (5,2 m.) tumanlarida kuzatildi.

	Hajmi, mlrd so'm	2023- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	17 817,0	109,2
Shaharlar		
Farg'ona	3 385,4	113,0
Qo'qon	3 117,0	101,9
Quvasoy	542,6	110,9
Marg'ilon	3 779,4	109,7
Tumanlar		
Oltiariq	299,5	108,5
Qo'shtepa	126,5	100,9
Bag'dod	112,1	105,8
Buvayda	478,2	108,0
Beshariq	198,4	106,6
Quva	84,6	109,0
Uchko'prik	1 142,5	143,4
Rishton	68,6	115,9
So'x	11,6	60,9
Toshloq	1 083,6	99,1
O'zbekiston	218,7	97,5
Farg'ona	394,2	103,5
Dang'ara	369,4	100,5
Furqat	99,7	104,4
Yozyovon	59,8	98,6